

Turizmda investitsiya tamoyillariga rioya etishni boshqarish

Dotsent Qo'shatov R

SamDU Iqtisodiyot va biznes

fakulteti talabasi

Meliyev Xudoyor Toshqobilovich

Annotatsiya: *Mavzu o'z ichiga mamlakatimizga tashrif buyuruvchi sayyohlarni ularni qaysi millat vakili bo'lishidan qat'iy nazar turizm odob axloq qoidalariga rioya etishi hamda shu asnoda ularni xayfsizligi, sun'iy to'siqlarni bartaraf etish yo'llari yoritilib o'tilgan .*

Kalit so'zlari: *Tamoyil, xususiy huquq, korporatsiya.*

O'zbekiston Respublikanng iqtisodiy taraqqiyotida asta – sekinlik bilan bo'lsa-da bevosita, shu jumladan chet el investisiyalari keyingi paytda rivojlanish bosqichida turibdi desak adashmaymiz. Afsuski, hozirga qadar ushbu sohadagi investisiyada o'z natijalariga ko'ra G'arb yetarli darajada muvaffaqiyatga erishmoqda. Ushbu soha respublikamizning manfaatlariga daxldor bo'lgani uchun sayyohlik tizimiga qay darajada hissa qo'shganiga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Xalqaro korporasiyalar tomonidan olinadigan daromadlarning oshishi investisiyalar kiritilishi bilan bog'liq bo'lib, bu sohada respublikamizning ko'pdan-ko'p imkoniyatlari bilan chet el investisiyalari bevosita mamlakatimizning soliq tashkilotlari nazarida ekanligi bilan amalga oshiriladi.

Umuman olib qaraganda tashkilot va korporasiya uchun chet el investisiyasini kiritish maqbuldir. Chet el omonatchilarining ulushiga kelganda shuni aytish lozimki, chet el investisiyalarining investisiyasi bevosita eksport mahsulotlarining ko'payishi yoki kamayishiga bog'liqdir. Mabodo chet el investisiyasi ushbu ko'rsatilgan vazifalarning biron-bir qismini bajarmasa, bunday holatlarda mahalliy mahsulotlarning ko'proq ishlab chiqarilishi va xalqaro raqobatbardoshlik korporasiyalar o'rtasida vujudga kelib, korpolarasiyalarning chet el daromadlari hisobiga foydasiga ta'sir ko'rsatadi.

Tabiiyki, ularning sonini aniqlash o'ta mushkul bo'lsada, ammo ularni real vosita sifati qarash zarurdir. Ushbu cheklovlar asosan siyosiy xarakterda bo'ladi. Ayrim yirik korporasiyalar amalda chet el nazorati bo'yicha ham o'zining sayohlik operasiyalarini sayyohlik bo'yicha amalga oshirishga qurbi yetadiganligini taqozo etmoqda. Albatta ommaviy axborot vositalarida mamlakat millatlarining qiziqishlaridan kelib chiqadigan talablarni e'tiborga olmaslik siyosat manfaatlariga zid bo'lmaslikni talab etadi.

Bevosita investisiyalarning chet eldan kirib kelishi natijasida ko'pgina mamlakatlarda ularning muntazam ravishda ortib ketishiga chegaralandi. Ertami kechmi ular iqtisodiy jihatdan chegaralandi. Qabul qilayotgan mamlakatlar to'lov balansi mahalliy guruhlar hamda davlatlarning chegaraviy nuqtai nazaridan xususiy sayyohlik guruhlarga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Cheklov va taqiqlar barcha chet el investisiyalari uchun bir xil bo'lmaydi. Erkin faoliyat ko'rsatish uchun cheklovlar mahalliy va chet el investorlarning hamkorligida mahalliy tashkilotlarga yetarli darajada jdaromadga ega bo'lmasligida yuzaga keladi.

Shu bilan bir qatorda har qanday har kompaniya daromadini oshirish maqsadida bevosita investisiya asosidagi vositalardan va dengiz sayohatlaridan foydalanish imkoniga egadir.

Xususiy huquq asosida chet el investorlari korporativ (manfaatdorlik) asosidagi huquqlardan foydalanish imkoniga egadirlar. Bu mahalliy tashkilotlar bilan teng huquqlik asosida amalga oshiriladi.

Keyingi paytlarda milliy sayyohlik muammolarini yechish jarayonida hamkorlik tashkilotlar soni ortdi, bular ma'lum darajada bir tomonlama ro'yobga oshirilmoqda, ya'ni ular asosan sayyohlik kapitalining mamlakatdan chiqib ketishiga olib kelmoqda.

Balansdagi qiymat iqtisodiy jihatdan o'zini oqlamaydigan investorlarning zarari ko'zda tutilgan dastlabki xabr tug'dirish bilan bog'liqdir. Har qanday sotuvdagi holatlar qo'shimcha ravishda muammolarni daromad nuqtai nazardan mavjud bo'ladi.

Boshqaruvga ega kontraktlar – Ushbu bitim bo'yicha mehmonxona egalariga turistik faoliyat yuritish va boshqa firmalariga berish vazifasini beradi. Masalan "Iris"

mehmonxonasi tashkilotida 20% aksiya patenlari “Accor Hotel Group” (Fransiya) ga kontrakt bo'yicha boshqarish va o'z mijozlari “Accor Hotel Group” tegishlidir.

Boshqaruvga o'rnak bo'la oladigan kontraktlarning qanday tartibda bo'lishini ko'rganda.

- Maslahat tarzida boshqaruvga ega bo'lgan firmalarning mutaxassislashuvi.
- Moliyaviy xizmat ko'rsatishga qaraganda sayyohlik borasidagi maslahat xizmatlar (qay holatda tashkil etish, ammo uni qay tarzda oshirishini ilmaslik).

Ushbu bitimlarning o'ziga xos xususiyati shundaki ular oldindan xizmat turlarini belgilab oladilar. Yetakchi firmalar tomonidan operatorlarga imtiyoz berish, tovar belgisi, imidj va nou-xau kabilar.

To'g'ridan-to'g'ri investisiyalar muammolari to'g'risidagi tahlillar shundan dalolat beradiki, xalqaro korporasiyalarning taraqqiy qilayotgan biznesga kirishgan mablag'i rejaning o'zini kiritgan mablag'i rejaning o'zini qoplashligini inobatga olgan holda besh yil va undan kamroq muddatga mo'ljallangan bo'ladi. Haqiqattan ham kutilgan natija uchun ma'lum darajada tavakalchilik qilinib chet el investisiyasining o'zini qoplashga mo'ljallangan bo'ladi. Bu o'z navbatida kontraktni rejalashtirishda ehtimollik nuqtai nazaridan boshqaruv tizimini o'zida mujassam etadi.

Bevosita investisiya orqali chet el korporasiyalaridan olinadigan imkoniyatlar, bevosita kontrakt asosidagi loyihalarga bog'liqligi bilan aloqadorligidir. Bu o'z navbatida chet el korporasiyalariga ko'rsatiladigan xizmat turlariga bog'liqdir. Agar mavjud kontraktning asosiy mazmuni texnologik jihatdan nou-xauning chet el korporasiyasining to'la-to'kis ta'minlanishi asosida amalga oshirilsa, u muvaffaqiyati garovi hisoblanib, maishiy jihatdan boshqaruv tizimining past darajada bo'lishiga asos bo'la olmaydi, chunki bunday past darajadagi boshqaruv ba'zi hollarda bevosita to'g'ridan-to'g'ri standart ravishdagi standartlarda sodir bo'lganidek.

Firmaning taraqqiy etish mezoni qanchalik yuqori bo'lsa, texnologik resurslar boshqaruv zaxirasi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Firmaning bozor sharoitida faoliyati qay darajada boy bo'lsa raqobat jarayonida uning xususiy resurslarda stimuli (omadi) shu darajada yuqori bo'ladi.

Sayyohlik taraqqiyotining hozirgi etapidagi sayyohlik biznesda transport, savdo-sotiq, sanoat, bank, sug'urta va boshqa shunga o'xshash kompaniyalarning o'zni beqiyosdir.

Yana bir qulayligi shundaki, sayohatlarda qatnashish jarayonida bank va sug'urta kompaniyalari moliyaviy ishtiroki jarayonida avtomatik tarzda mehmonxonalardagi joylashish, transport, turli variantlarni amalga oshirilishi.

Shunday qilib, bu jarayon ikki tomonning qat'iy kelishuvi asosida tarnsmilliy korporasiyalar va qabul qiluvchi mamlakatlarning uchunchi turistik korporasiyalari hamkorligida amalga oshiriladi. Bu davlat tashkilotlari va xususiy sosial sentirlar vositasida ham amalga oshirilishi mumkin.

Keltirilgan barcha variantlar yo'nalishi manfaador chet el va mamlakatning o'zidagi investisiyalarga tegishli bo'lib: birinchidan, turistik resurslar mehmonxona tashkilotlari mahalliy kompaniyalar tasarrufida bo'ladi, ikkinchidan xorij korporasiyalarining faoliyati cheklangan kelishilgan muddatda bo'lib hatto ularning dastlabki kontrakti qayta tiklanganda loyihada ko'rsatilgan muddati qat'iy belgilangan bo'ladi.

Olib borilgan ushbu me'yor kelgusida daromadning ortishiga ishonch uyg'otadi. Sayyohlik biznesi, ayniqsa mehmonxonalar hisobiga tashkil etilgan hamkorlik konseptual va amaliy ko'nikmalar hozirgi davr muhitiga moslashuvi kelgusidagi barcha faoliyatlar uchun o'ta zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

7. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. – T.: 1998.
8. "Investitsiya loyihalarini loyiha oldi hujjatlarinin isjlab chiqish sifatinin oshirish to'g'risida"gi 2017 yil 15 martdagi PQ – 2836 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari.